



## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “MOUTH”\“OG‘IZ” SOMATIZMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING OLAMNING LISONIY MANZARASIDA TUTGAN O‘RNI.

*Otajonov Botirbek Ashuraliyevich, ADChTI*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “og‘iz” leksemasining etimologik manbalari tadqiq etiladi. Tilshunoslikka oid manbalar hamda tarixiy ma’lumotlar tahlili asosida “og‘iz” konseptining turli madaniy va kommunikativ muhitlardagi semantik xususiyatlari hamda konnotativ ma’nolari yoritiladi. “Og‘iz” konsepti misolida olamning lisoniy manzarasi tahlil qilinib, tilning inson tafakkuri, idroki va borliqni anglash jarayonidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, maqolada til, madaniyat va kognitiv omillarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** og‘iz konsepti, etimologiya, konseptual xususiyat, verbalizatsiya, verbalizator, verbal va noverbal vositalar, antropologiya.

Har qanday milliy olam manzarasida inson yetakchi va markaziy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning borliqdagi o‘rni va mavjudligi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish jarayonida ilmiy izlanishlar tabiiy ravishda uning jismoniy tuzilishi, ya’ni tana bilan bog‘liq jihatlarga murojaat qiladi. Shu sababli inson tanasi ko‘plab tabiiy hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, inson organizmi anatomiya, fiziologiya, antropologiya, biomexanika, psixosomatika kabi fanlar doirasida keng o‘rganiladi. Zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda ham inson tanasi va uning turli ko‘rinishlariga bo‘lgan qiziqish doimiy ravishda yuqori bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, inson tana a’zolarini ifodalovchi somatizmlarni tadqiq etish va ularni ilmiy tavsiflashda tilshunoslik alohida ahamiyat kasb etadi.



Somatizmlarga kelsak, rus tilshunos olimasi N.V.Masalevaning aytishicha, olamning lisoniy manzarasini ifodalashda ular muhim omillardan hisoblanadi. Olima somatizmlarni lugʻat guruhi tarkibida universallik xususiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtadi, chunki u borliqning boshqa qismlarini tasvirlash vositasi sifatida qoʻllana olishi haqida fikrlarini keltiradi. Olima olamning har qanday lisoniy manzarasida somatizmlarning markazi quyidagi bir necha sabablar bilan izohlanishini koʻrsatib oʻtadi. Ular quyidagilardir:

- inson ongining antropotsentrik paradigmasi;
- tana tuzilishining bir xilligi (iqlim, tabiiy, hududiy sharoitlarga bogʻliq emas);
- tanani bir qator metafizik xususiyatlar bilan taʼminlash;
- tananing fazoning boshlangʻich oʻlchov parametrlarini belgilash, tananing nafaqat fazoviy, balki vaqt hajmlarini ham oʻlchash vositasi sifatida harakat qilish qobiliyati.

Bizningcha, atrofdagi voqeliklar qiymatining asosiy oʻlchovi insondir. U oʻzini tevarak-atrofida mavjud boʻlgan olamni “oʻziga xos qiyofada va tasavvurda” yaratilgandek idrok etadi. Inson ongli subyekt sifatida obyektiv voqelik haqidagi maʼlum bilimlar, gʻoyalar va fikrlar tizimining tashuvchisi hisoblanadi. Bu tizim turli fanlarda (olam manzarasi, olamning konseptual tizimi, olam modeli, olam tasviri) oʻz nomiga ega boʻlib, turli jihatlarida tasavvur etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz "*Mouth*"/"*Ogʻiz*" konseptiga quyidagi taʼrifni berib oʻtmoqchimiz: "*Mouth*"/"*Ogʻiz*" konsepti – bu ijobiy, salbiy yoki neytral baholashlar toʻplami boʻlib, u individlarining milliy xotirasida oʻrin olgan va hissiy obraz sifatida namoyon boʻlgan obyektiv borliqning muayyan boʻlagiga aloqador, muhim va ikkinchi darajali xususiyatlarini aks ettiradi.

"*Mouth*"/"*Ogʻiz*" konsepti ingliz, oʻzbek, nemis, rus va boshqa xalqlarning konseptosferalarida muhim oʻrin tutadigan mental birlikdir. Boshqa turli konseptlar singari, "*Mouth*"/"*Ogʻiz*" konsepti tartibli ichki tuzilishga ega boʻlib, uning xarakterli belgilari makro- va mikromaydonlardir. Biz "*Mouth*"/"*Ogʻiz*" konseptining shaxs yoki sotsiumlar ongida mavjud boʻlgan xususiyatlarini noverbal



konseptual atributlar deb hisoblaymiz. Ushbu konseptning verballashgan qismini biz konseptning verbal atributi yoki atributlari deb ataymiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, "*Mouth*"/"*Og'iz*" yoki boshqa konseptlarning barcha belgi-xususiyatlari bir vaqtning o'zida og'zaki ifodalanishi mumkin deyish mantiqan to'g'ri emas, chunki og'zaki muloqot paytida muloqot konteksti uchun zarur bo'lgan belgi(lar) lingvistik shaklni oladi va verballashadi. *Verbalizatsiya* keng ma'noda kechinmalar, his-tuyg'ular, fikrlar, xatti-harakatlarning og'zaki (verbal) tavsifini anglatadi. To'g'rirog'i, *verbalizatsiya* – bu olamni tasvirlovchi belgilarni ovozli belgilash, ya'ni ovoz bilan ifodalash jarayoni hisoblanadi. Ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tan olingan konseptning verballashuvining asosiy vositalaridan biri frazeologik birlikdir. Rus tilshunos olimi N.F.Alefirenko konseptni verballashtirishning eng keng tarqalgan vositasi sifatida so'zni, frazeologizmni, so'z birikmasini, gapning strukturaviy sxemasini va hatto matnni "agar u konseptning mohiyatini ochib bersa" deb belgilaydi, – degan fikrlarni keltiradi. Bizning fikrimizcha ham, konsept so'z, frazeologik birlik, so'z birikmasi, gap va matn orqali ifoda etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, *og'iz* inson hayoti va faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, usiz odam ovqat yeyishi, ichishi, og'zaki muloqot qilishi mumkin emas, chunki biz og'zimiz yordamida gapiramiz, muloqot qilamiz, ovqatlanamiz, ichamiz va hokazo. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, *og'iz* ko'p ma'noli va ko'p vazifaliligi bilan boshqa organlar (unda joylashgan lablar, til, milk, tishlar, tanglay, kichik ishtiroki bilan) orasida asosiy o'rinni egallaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, biz avval ingliz tilidagi *mouth* leksemasining etimologiyasiga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. *Mouth* leksemasining etimologiyasi o'rta ingliz tilidan *mouth/o'giz*, qadimgi ingliz tilidan "*mūþ*", proto-g'arbiy german tilidan *\*munþ*, proto-german tilidan *\*munþaz* («og'iz»), proto-hind-yevropa tilidan *\*ment-* (chaynamoq; jag', og'iz) kabi ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilidagi *mouth* leksemasi proto-hind-yevropacha *\*mnt* – va keyinchalik proto-germancha *\*munþaz* (og'iz.) dan kelib chiqqanligi tavsiflanadi.



O'zbek tilshunos olimi Sh.Rahmatullayevning *O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkey so'zlar)*da "og'iz" leksemasining etimologiyasi quyidagicha keltirilgan: *og'iz* "ikki lab oralig'idagi teshik", "jag'lar oralig'idagi bo'shliq". Bu ot qadimgi "turkiy tildagi "teshik" ma'nosini anglatgan "af" otidan **kichraytirish** ma'nosini ifodalovchi "-(ы)з" qo'shimchasi bilan hosil qilingan (ЭСТЯ, I, 82; ПДП, 355; Девоп, I, 89; ДС, 21); o'zbek tilida "a" unlisi "â" unlisiga almashgan, "ы" unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: "af + ыз = афыз > âfiz".

Endi esa "*Mouth*"/"*Og'iz*" konseptining ingliz va o'zbek tillarining izohli lug'atlarida berilgan izohlaridan keltirib o'tsak: ingliz tilining *Cambridge Advanced Learners' Dictionary* izohli lug'atida "*mouth*" leksemasiga quyidagicha ta'rif berilgan: *the opening in the face of a person or animal, consisting of the lips and the space between them, or the space behind containing the teeth and the tongue*, ya'ni lablar va ular orasidagi bo'shliqdan iborat odam yoki hayvonning yuzidagi teshik yoki tish va tilni o'z ichiga olgan bo'shliq. – *'Open your mouth. Well, your tooth is loose, but you're not going to die about that.*

Ingliz tilining *Merriam-Webster* onlayn lug'atida biz "*mouth*" leksemasining quyidagi ta'rifini uchratdik: *the natural opening through which food passes into the body of an animal and which in vertebrates is typically bounded externally by the lips and internally by the pharynx and encloses the tongue, gums, and teeth* (oziq-ovqat hayvonlarning tanasiga o'tadigan va umurtqali hayvonlarda odatda tashqi tomondan lablar va bo'g'iz bo'shlig'i bilan chegaralangan, til, milk va tishlarni o'rab turgan tabiiy bo'shliq)

Yana bir ingliz tilining *Collins Thesaurus of the English Language* izohli lug'atida *mouth* leksemasining turli xil ma'nolarini tavsiflovchi sinonimlar guruhi mavjud ekanligi kuzatildi. Ular quyidagicha: 1. *lips* (lablar), *trap*, *chops*, *jaws*, *gob*, *maw*, *yap*, *laughing gear*, *cakehole* kabi so'zlar sleng ma'nosini anglatib kelgan, ayniqsa Britanacha variantda; 2. *entrance* (kirish joyi), *opening*, *gateway*, *cavity*, *door*, *aperture*, *crevice*, *orifice*, *the mouth of the tunnel*



Yana bir ingliz tili izohli lugʻatlardan biri *Longman Dictionary of Contemporary English* lugʻatida, *mouth* leksemasi *mouth* soʻzidan kelib chiqqanligi haqida maʼlumotlar keltirilgan, boʻlib unga quyidagicha izohlar keltirilganligini koʻrishimiz mumkin: 1. Ot sifatida: *the part of your face which you put food into, or which you use for speaking* (inson yuzidagi oziq-ovqatni isteʼmol qiluvchi yoki gapirish uchun moʻljallangan inson tana qismi); 1. *the entrance to a large hole or cave* (teshik yoki gʻorga kirish joyi); 2. *the part of a river where it joins the sea* (daryoning dengizga qoʻshiladigan qismi); 3. *the open part at the top of a bottle or container* (shisha yoki idishning yuqori qismidagi ochiq qism); 2. Feʼl sifatida: 1. *to move your lips in the same way you do when you are saying words, but without making any sound* (ovoz chiqarmay lablar orqali tushintirish); 2. *to say things that you do not really believe or that you do not understand* (haqiqatan ham oʻzi ishonmaydigan yoki tushunmaydigan narsalarni aytish, aljirash).

Ingliz tilining yana bir mashhur lugʻatlardan biri *Macmillan English Dictionary for Advanced Learners* lugʻatida *mouth* leksemasiga quyidagicha taʼrif berilganligini koʻrishimiz mumkin: 1. *the part of your face below your nose that you use to eat and speak* (inson chehrasining burnidan pastki, ovqatlanish va gapirish uchun moʻljallangan qismi); 2. *someone who you have to provide food for* (*siz oziq-ovqat bilan taʼminlashingiz kerak boʻlgan kishi*); 3. *the entrance to something such as a cave* (*gʻorga yoki yer osti yoʻliga kirish joyi*) or tunnel 3a. *the opening of a bottle or other container* (*shisha yoki idishning ogʻzi*).

Feʼl sifatida: *to form words with your mouth but not make any sound* (*ogʻizni qimirlatib tushintirmoq*).

“Oxford Languages” lugʻatida berilgan maʼlumotlarga koʻra, *mouth* leksemaning sleng sifatida qoʻllanilishini kuzatdik: *A loud or overly talkative person. (Baland yoki haddan tashqari koʻp gapiradigan odam): My kid sister is a real mouth; she never shuts up.* Ushbu lugʻatda mazkur leksemaning 23 ta maʼnodoshi bor ekanligini tadqiqotimiz mobaynida guvohi boʻldik. Ular





quyidagilardir: cakehole (*slengda og'iz ma'nosida*), chops (*og'iz ma'nosida, faqat ko'plikda*), clam (*amerikacha slengda og'iz ma'nosida*), gob (*slengda og'iz ma'nosida*), hash-trap (*slengda og'iz ma'nosida*), kisser (*slengda og'iz ma'nosida*), laughing gear (*slengda og'iz ma'nosida*), maw yoki mush (*slengda og'iz ma'nosida*), neb (*shotland shevasida og'iz ma'nosida*), north and south (*slengda og'iz ma'nosida*), oral cavity, os, piehole (*slengda og'iz ma'nosida*), potato trap (*slengda og'iz ma'nosida*), yap (*slengda og'iz ma'nosida*).

Yuqorida biz *og'iz* leksemasining ingliz tilidagi lug'atlarda voqelanishini ko'rib, tahlildan o'tkazib oldik. Endigi navbat esa o'zbek tilida *og'iz* leksemasining voqelanishini kuzatsak: *og'iz ko'p ma'noli* va *ko'p vazifaliligi* bilan boshqa organlar (unda joylashgan lablar, til, milk, tishlar, tanglay ishtiroki bilan) orasida alohida o'rin tutadi. *Og'iz* leksemasi *og'iz* konseptining tarkibiy qismidir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, *og'iz* konsepti universal konseptual maqomga ega bo'lib, u eng muhim belgi va xususiyatlarni, shuningdek, borliqda ifodalangan voqelik yoki obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni, ijtimoiy ong uni qanday talqin qilishini va ijtimoiy ongning unga munosabatini aks ettiradi. "*O'zbek tilining izohli lug'ati*" va boshqa manbalarda *og'iz* so'zining ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Ushbu lug'atda mazkur leksemaning 8 ta ma'nosi berilganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'riflar esa quyidagicha berilgan: 1. Ikki jag' o'rtasidagi, *ovqatlanish, so'zlash* yoki *ovoz chiqarish* uchun xizmat qiladigan bo'shliq: *Baliqning og'zi. Odamning og'zi*. 2. Ikki lab va ularning bir-biriga tegib turgan joyi va atrofi. *Og'izdan o'pmoq. Bir-bir ketin ikki piyolani to'latib ichdi, yengi bilan og'zini artdi*. 3. *Ko'chma* so'zlovchi kishi, odam. *Ko'p og'iz bir bo'lsa, bir og'iz yengiladi*. Maqol. *Yo'ldosh ota kelayotibdilar, degan gap og'izdan-og'izga o'tdi*. 4. *Ko'chma* birovning qaramog'ida bo'lgan odam, xo'randa, nonxo'r. *Duv-duv yosh to'kar, qo'llarini osmonga ko'tarib nola qilardi: Xudovando! Bu na ko'rgilik? Endi netaman? To'qqiz og'izni qanday boqaman?* (S.Siyoyev, Yorug'lik.) – *Bazzoz pochchaning bekorchi og'izga tobi yo'q edi*. 5. Miltiq, to'pponcha, minomyot,



zambarak kabi otish quollarining o‘q otilib chiqadigan teshigi, stvoli. *Dildor zambarak og‘zida bola ochgan chumchuqdek yashab kelganini bilmagandi.* 6. Ichki bo‘shlig‘i, ichi bo‘lgan narsalarning kirish-chiqish uchun xizmat qiladigan joyi, teshigi. *O‘raning og‘zi. G‘orning og‘zi. Chayla og‘zida qo‘lida tugun bilan Azizxon ko‘rindi.* 7. Ichki bo‘shlig‘i, ichi bo‘lgan narsalarning kiri-chiqish uchun xizmat qiladigan joyi, teshigi. *Shishaning og‘zi.* Kapoti ochiq turgan **“Gazik” radiatorining og‘zidan shiddat bilan hovur chiqardi.**

8. Ko‘chaning, yo‘lning boshlanishi, kiraverish joyi. *Ko‘cha og‘zi.*

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida ham *og‘iz* leksemasi xuddi ingliz tilidagi kabi keltirilgan izohlarning deyarli hammasida semantik jihatidan o‘xshash ekanligini kuzatdik.

Mazkur lug‘atda ushbu so‘zning sinonimi ham mavjud. *Dahan* – fors tilidan kirgan bo‘lib *og‘iz* ma’nosini beradi. 1) *Uchi dahaniga qarab egilgan qing‘ir burnini g‘alati qimirlatib, o‘rnidan turdi. Muniraning peshonasi do‘ngroq, dahani kulcha yuziga nomunosib tarzda kattaroq edi.* 2) ko‘chma ma’noda: *So‘zamollik, gapga chechanlik; va‘dabozlik.* [Turdimat] *Lafzida turmaydigan yigit. Shu dahani bilan shuncha yil raislik qilganiga dog‘man;* 3) biror narsaning kiraverish joyi, ochiq tomoni, labi. – *Mullajon belbog‘ining qatidan nosqovog‘ini olib, kaftini to‘ldirib, nos otdi, xotirjam yurib kelib, ayvonning dahaniga o‘tirdi. Murodjon ishdan kelsa, onasi kiyimlarini tugib, ayvon dahanida o‘tiribdi.*

*Dahana* – kirish yoki chiqish teshigi; to‘p, miltiq og‘zi; daryoning etak qismi]

1) *ekinga suv qo‘yish uchun qilingan o‘yiq joy; ariqcha boshlangan joy. Safarbarov beixtiyor, go‘yo paxtazorga o‘t ketgandek, dahanadan dahanaga, uvatdan uvatga yugurdi. Zangori kema kapitani. Har bir brigada uch-to‘rt dahanadan suv ichardi.* 2) suv o‘tadigan qisqa, tor o‘zan. *Qo‘shchinordan bir yarim kilometr yuqorida biri yuz ellik, ikkinchisi yaqin yuz qadam keladigan ikkita dahana bo‘lib, toshqin suvi shu yerlardan otar ekran. Xayribi iris-sirimga borib, tegirmonning suv aylanib tushadigan dahanasidagi katta qora tol ostiga chiroq yoqib keldi.* 3) ayn. dahan 3.




Ayvon dahanasi. Uy dahanasi. Choyxona ko'chaning shunday dahanasida, katta hovuzning bo'yida edi. Hoji bobo charchagan kishilarday uh tortib, supa dahanasiga o'tirdi; 4) Daraning boshlanish joyi: dara og'zi. 5) maks. Pichoq qinining og'zi.

*Dahanak* [og'izcha] – Pichoq qinining og'zini pichoq kesib ketmasligi chun yunga kumush okimi san yasab kiydiriladigan halqasimon qism.

Dahanaki [og'izda bajariladigan; og'zaki]: dahanaki jang. Og'zaki janjal, qattiq aytishish, so'kishish. *To'yxonaning chekka xonalaridan birida Jalil aka bilan Sabira apa o'rtasida xufiyona dahanaki jang ketardi. – Mirzayev mingboshi bilan Damin kulol o'rtasidagi dahanaki jang yoqama-yoqaga o'tdi.* “Lab” va “dudoq” so'zlari ham “og'iz” so'ziga sinonim bo'la oladi: 1. kt. 1 ayn. lab. – [Gulnor] *Yo'lchining kuchli, erkak nafasini, dudoqlarida uning bo'sasining jonli olovini bir lahza sezdi. Sevishganlar qo'li bir-biriga chirmashdi. Dudoqlarda bo'sa chaqnadi.* 2. ko'chma ma'noda: Og'iz; til. *Sharaf sizga, yog'ar million dudoqdan kuchli olqishlar. Alla aytgan dudoqlarda Ona mehri toshqin.* “Lab-dahan” (lab va og'iz) so'zining ko'chma ma'nosi: Til, gapirish qobiliyati; kimsaga gapirib, biror ishni bitirish, o'z gapini ma'qul qilish qobiliyati; so'zamollik. *Vodilda ham biron qiz bilan muhabbat to'g'risida gaplashmaganman. Lab-dahan yo'qligini bilasan-u, og'ayni.* Sifat – lab-dahanli: Mundoq lab-dahanli, quvnoq yigitlardan bo'la qolsang nima qiladi! Yuqorida keltirilgan keltirilgan ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida “Mouth”/“Og'iz” konseptining ovqatlanish, so'zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo'shliq, kirish-chiqish joyi, biror narsaning ochiq joyi, so'zamollik differensial belgi-xususiyatlari aniqlandi.

Quyidagi freymda ingliz tilidagi “mouth” leksemasining sinonimlari va ma'nodosh so'zlarini keltiramiz:





Quyidagi freymda o‘zbek tilidagi “og‘iz” leksemasining sinonimlari, (ma’lum kontekstda) manodosh so‘zlari va qismlarini beramiz:



Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, “Mouth”/“Og‘iz” somatizmi polisemantik xususiyatiga ega bo‘lib, uning tog‘ri va ko‘chma ma’nolarida uning tabiiy va interpretatsion belgilari o‘z ifodasini topadi. Bunday kognitiv belgilar og‘izning o‘ziga (big, katta, polvon, small, wide), borliadagi narsa, predmetlarga (the mouth of the river, the mouth of the cave, qopning og‘zi), insonlarga (mouth = laqma odam, so‘zlovchi kishi; cakehole (odamning og‘zi ma’nosida), tana a’zosi)) tegishliligi og‘iz har ikki lingvomadaniyat vakillari uchun qadriyatli ekanligidan dalolat beradi.



## REFERENCES

1. Алефиренко Н. Ф. Проблемы вербализации концепта: теоретическое исследование. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 8.
2. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Mouth // Cambridge Dictionary [Elektron resurs]. – Режим доступа: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/mouth> (Murojaat sanasi: 2024-yil 20-iyul).
3. CTEL – Collins Thesaurus of the English Language. – Complete and Unabridged 2nd Edition. – HarperCollins Publishers, 1995, 2002.
4. Longman Dictionary of Contemporary English. – British Library Cataloguing-in-Publication Data. – Pearson Education Limited, 2010.
5. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – New Edition. – Reference and Electronic Media Division of Bloomsbury Publishing Plc, London, United Kingdom, 2010.
6. Масалева Н. В. Соматизмы в русской языковой картине мира: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иваново, 2010. – С. 9.
7. MWOD – Merriam-Webster's Online Dictionary [Elektron resurs]. – Mode of access: <http://www.merriam-webster.com>.
8. Oxford Learner's Dictionary. – Oxford University Press [Elektron resurs]. – Available at: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com> (Accessed: 3 August 2024).
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 265.
10. Twain Mark. The Adventures of Tom Sawyer. Chapter 2. – American Publishing Company, 1876. – Б. 89.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳрири остида. – Иккинчи жилд. А–Д. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, [2006–2008], [2006]. – Б. 582.